

UO'K(UDC, УДК): 82.091

T.DRAYZER VA G.MALO ASARLARIDA BADIY MAKON POETIKASI¹⁴**Alibekova Dilrabo Abdiraimovna***Assistent o'qituvchi**Samarqand davlat chet tillar instituti**Samarqand, Uzbekiston**E-mail: alibekovadilrabo9@gmail.com**ORCID ID: [0009-0004-5345-6869](https://orcid.org/0009-0004-5345-6869)***ANNOTATSIYA****KALIT SO'ZLAR**

Ushbu maqolada Teodor Drayzer va Gektor Malo asarlarida makon tasviri orqali ijtimoiy muhitning badiiy ifodalanishi tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi shahar va qishloq makonining qahramonlar hayoti, ijtimoiy mavqeyi hamda jamiyatdagi iqtisodiy tengsizliklarni ochishdagi vazifasini aniqlashdan iborat. Muammo badiiy makonning faqat voqea sodir bo'ladigan joy emas, balki ijtimoiy mazmunni ifodalovchi muhim poetik vosita sifatida talqin qilinishiga qaratilgan. Maqolada komparativ-tipologik, kontekstual va badiiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Asarlardan olingan parchalar makon, predmet detali va ijtimoiy kontekst o'rtasidagi bog'liqlik asosida izchil sharhlandi. Drayzer asaridagi kambag'al shahar kvartallari ishchi sinf hayotining og'ir sharoitlarini, Malo asaridagi qishloq manzaralari esa dehqonlar turmushidagi ijtimoiy qiyinchiliklarni yoritishi aniqlandi. Tahlil natijalari har ikki yozuvchi makon tasvirini realizm tamoyillari asosida ijtimoiy tabaqalanish, kambag'allik va inson taqdiri bilan bog'lashini ko'rsatadi. Maqola badiiy makonning ijtimoiy ma'no yaratishdagi vazifasini aniqlashtirishi bilan adabiyotshunoslik tadqiqotlariga muhim nazariy hamda amaliy hissa qo'shadi. Xulosa sifatida, makon obrazlari qahramonlarning ruhiy va ijtimoiy holatini ochuvchi asosiy badiiy omil ekani asoslandi.

Badiiy makon, poetika, qiyosiy tahlil, realizm, shahar makoni, sayohat makoni, narrativ tuzilish, lingvopoetika.

Received: April 21, 2026**Accepted:** June 20, 2026**Available online:** September 5, 2026¹⁴ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Alibekova D. T.Drayzer va G.Malo asarlarida badiiy makon poetikasi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 4(12) — B. 224-237.

THE POETICS OF ARTISTIC SPACE IN THE WORKS OF T. DREISER AND H. MALOT

Alibekova Dilrabo Abdiraimovna

Assistant Lecturer at the Samarkand State

Institute of Foreign Languages

Samarkand, Uzbekistan

E-mail: alibekovadilrabo9@gmail.com

ORCID ID: 0009-0004-5345-6869

ABSTRACT	KEYWORDS
This article examines the artistic representation of social space in the works of Theodore Dreiser and Hector Malot. The main aim of the study is to identify the function of urban and rural settings in revealing the characters' lives, their social position, and the problem of economic inequality. The research problem is based on the interpretation of literary space not merely as a physical location where events take place, but as an important poetic device that conveys social meaning. The study applies comparative-typological, contextual, and literary analysis methods. The analysis shows that Dreiser's depiction of poor urban quarters reflects the difficult living conditions of the working class, while Malot's representation of rural villages reveals the hardships of peasant life. The findings demonstrate that both writers use spatial description within the tradition of realism and connect it with poverty, social stratification, and human destiny. The article concludes that literary space performs a semantic function and becomes one of the main artistic means of revealing the psychological and social condition of the characters.	Artistic space, poetics, comparative analysis, realism, urban space, travel motif, narrative structure, linguopoetics.

ПОЭТИКА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОСТРАНСТВА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ Т. ДРАЙЗЕРА И Г. МАЛО

Алибекова Дилрабо Абдираимовна

Ассистент-преподаватель

Самаркандского государственного института

иностранных языков

E-mail: alibekovadilrabo9@gmail.com

ORCID ID: 0009-0004-5345-6869

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В данной статье исследуется художественное изображение социальной среды в произведениях Теодора Драйзера и Гектора Мало посредством создания образа пространства. Цель исследования состоит в определении роли городского и сельского пространства в характеристике жизни героев, их социального положения и экономического неравенства в обществе. Основное внимание уделяется интерпретации художественного пространства, которое выступает не только как место событий, но и как важное поэтическое средство выражения социального содержания. В работе применяются сравнительно-типологический, контекстуальный и литературно-художественный методы анализа. Фрагменты текста рассматриваются с учетом связи между пространством, предметной деталью и социальной средой. Установлено, что у Драйзера описание бедных городских кварталов отражает тяжелые условия жизни рабочего класса, тогда как у Мало изображение деревенского пространства раскрывает социальные проблемы крестьянской среды. Результаты исследования показывают, что оба писателя используют пространственные образы в рамках реалистической традиции, связывая их с проблемами бедности, социального неравенства и человеческой судьбы. Статья вносит важный теоретический и практический вклад в литературоведческие исследования, уточняя функцию художественного пространства в передаче социальных смыслов. В заключение обосновывается, что пространство в анализируемых произведениях служит средством раскрытия психологического состояния и социального положения персонажей.	Художественное пространство, поэтика, сравнительный анализ, реализм, городское пространство, мотив путешествия, нарративная структура, лингвопоэтика.

KIRISH

Badiiy asarning poetik tuzilmasida makon kategoriyasi muhim o'rin tutadi. adabiyotshunoslikda badiiy makon asarda tasvirlangan voqealar sodir bo'ladigan muhitni ifodalaydi va u qahramonlarning harakati, ijtimoiy muhit hamda muallifning estetik qarashlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Badiiy makon nafaqat voqealar fonini yaratadi, balki asarning g'oyaviy mazmunini ochib beruvchi muhim poetik vosita sifatida ham xizmat qiladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi realizm adabiyotida makon tasviri ijtimoiy hayotni aks ettirishning asosiy vositalaridan biri sifatida shakllandi. Bu davr yozuvchilari jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarni, inson taqdirining murakkabligini va muhitning shaxs rivojlanishiga ta'sirini badiiy makon orqali tasvirlashga alohida e'tibor qaratdilar.

Amerikalik yozuvchi Teodor Drayzer va fransuz yozuvchisi Gektor Malo asarlarida badiiy makon realizm an'analari bilan chambarchas bog'liq holda tasvirlanadi. Ularning ijodida makon shunchaki fon emas, balki voqealar rivojiga bevosita ta'sir etuvchi muhim poetik unsur sifatida namoyon bo'ladi. Drayzer asarlarida shahar muhiti alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, industrial shahar tasviri orqali jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik ochib beriladi. Bu makon inson ruhiyatidagi ziddiyatlarni aks ettirish vositasiga aylanadi. Qahramonlar ko'pincha shahar shovqini va muammolari ichida o'z o'rnini izlaydi. Natijada ichki kurash va tashqi muhit o'rtasidagi bog'liqlik yuzaga chiqadi. Drayzer qahramonlari uchun shahar imkoniyatlar manbai bo'lish bilan birga sinov maydoni hamdir. Bu esa realizmning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Muallif makon orqali jamiyatning haqiqiy manzarasini ko'rsatadi.

Gektor Malo asarlarida esa makon tasviri boshqacha yo'nalishda rivojlanadi. Unda makon ko'proq qahramonning hayotiy sayohati bilan bog'lanadi. Qahramon bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yuradi. Bu jarayon davomida turli hududlar tasviri beriladi. Har bir makon qahramon xarakterining shakllanishiga ta'sir qiladi. Malo asarlarida yo'l obrazi alohida o'rin tutadi. Yo'l qahramonning hayotiy tajribasini boyituvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, turli muhitlar orqali insonning

ijtimoiy holati yoritiladi. Qishloq, shahar va boshqa joylar bir-biri bilan solishtiriladi. Bu esa asarning badiiy ta'sirchanligini oshiradi.

Ikkala yozuvchi ham makonni real hayotga yaqin holda tasvirlaydi. Ular uchun makon voqelikni ochib berish vositasidir. Drayzer makon orqali jamiyatdagi muammolarni ko'rsatadi. Malo esa makon orqali insonning hayotiy yo'lini aks ettiradi. Har ikki ijodkorda ham makon qahramon taqdiriga bevosita ta'sir qiladi. Bu esa realizmning asosiy talablariga mos keladi. Makon tasviri orqali asar mazmuni yanada chuqurlashadi. Qahramonlarning ichki kechinmalari ham makon bilan uyg'un holda beriladi. Natijada badiiy asarda yaxlitlik yuzaga keladi. Shu bois Drayzer va Malo ijodida makon poetik jihatdan muhim element hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda badiiy makon tushunchasi dastlab arastuning Poetika asarida berilgan va bu tushuncha keyinroq yevropa tadqiqotchilari Bachelard G. "La Poétique de l'espace" (Bachelard G., 1958, 34-37), Baxtin M.M "Вопросы литературы и эстетики" (Bakhtin M., 1975, 82-84) hamda o'zbek tadqiqotchilari Jo'raqulov U "Nazariy poetika masalalari: muallif, janr, xronotop (Jo'raqulov U, 2012, 24-26.), To'rayeva B "Zamonaviy romanchilikda xronotop poetikasining qiyosiy-tipologik tadqiqi (To'rayeva B., 2014, 42-43) va U.D.Qarshibayeva "Fransuz romantizm prozasining poetik xususiyatlari" (Qarshibayeva U., 2016, 29-31) kabi tadqiqot ishlarida badiiy makon tushunchasining asl mohiyatini yoritib berishgan. Ayniqsa makon va zamonning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi xronotop tushunchasi adabiy matn tahlilida muhim nazariy asos hisoblanadi. Biroq Drayzer va Malo asarlaridagi badiiy makon poetikasi qiyosiy jihatdan yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Drayzer va Malo asarlarida badiiy makon poetikasini tahlil qilish hamda uning qahramon xarakteri, voqealar rivoji va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligini aniqlashdan iborat. Mazkur maqola Drayzer va Malo asarlarida badiiy makonning poetik funksiyasini aniqlash orqali realizm adabiyotining muhim xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi.

METODLAR

Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar badiiy matnni chuqur tahlil qilish va mualliflarning poetik uslubini aniqlash imkonini beradi.

Birinchi navbatda qiyosiy tahlil metodi (comparative analysis) qo'llanildi. Bu metod Drayzer va Malo asarlaridagi badiiy makon tasvirining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashga yordam berdi. Qiyosiy tahlil orqali ikki muallifning makon tasviridagi estetik qarashlari o'rganildi. Masalan: *"The little house stood on a narrow street, poor and quiet, where the signs of poverty were visible everywhere."* (Dreiser T., 1911, 8) — *Kichkina uy tor, kambag'al va sokin ko'chada joylashgan edi, bu yerda qashshoqlik belgilari hamma joyda ko'rinib turardi* (Noirov E., 2005, 7). Bu parcha qahramon yashayotgan ijtimoiy muhitni ochib beradi. Muallif tor ko'cha va kambag'al uy tasviri orqali qahramonning ijtimoiy holatini ko'rsatadi. Badiiy makon bu yerda nafaqat voqealar sodir bo'ladigan joy, balki qahramon taqdirini belgilovchi ijtimoiy muhit sifatida namoyon bo'ladi:

La route s'étendait devant nous à travers les champs et les villages, et nous marchions sans savoir où nous passerions la nuit (Malot H., 1878, 102). — *Yo'l bizning oldimizda dalalar va qishloqlar orasidan uzoqqa cho'zilib ketar, biz esa kechani qayerda o'tkazishimizni bilmagan holda yurishda davom etardik*. Ushbu parcha romanda yo'l makonining tasvirini ifodalaydi. Yo'l va ochiq tabiat tasviri qahramonning doimiy harakatda ekanligini va uning hayoti noaniqlik hamda izlanishlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bu makon qahramonning ruhiy shakllanishi va hayotiy tajribasini aks ettiruvchi muhim poetik element sifatida xizmat qiladi. Qiyosiy tahlilda bu holat Drayzer asarlaridagi yopiq va ijtimoiy jihatdan cheklangan shahar makoni bilan qarama-qarshi qo'yilishi mumkin.

Ikkinchi metod sifatida **lingvopoetik tahlil** ishlatildi. Bu metod badiiy makon tasvirida qo'llanilgan til vositalarini aniqlashga yordam beradi. Metafora, epitet, tasviriy detallar va boshqa stilistik vositalar makon tasvirining badiiy ta'sirini kuchaytiruvchi elementlar sifatida tahlil qilindi.

The little frame house stood back from the street, worn and weather-beaten, with a small yard that looked bare and neglected (Dreiser T., 1911, 7). — *Kichkina yog‘och uy ko‘chadan biroz ichkarida joylashgan bo‘lib, eskirib ketgan va ob-havo ta‘sirida yaroqsiz holga kelgan edi, oldida esa qarovsiz va yalang‘och ko‘rinadigan kichik hovli bor edi* (Noirov E., 2005, 7).

Bu parchada badiiy makonni tasvirlash uchun bir nechta stilistik vositalar ishlatilgan:

- Epitetlar: *worn, weather-beaten, bare, neglected*
- Tasviriy detal: *little frame house, small yard*

Bu epitetlar kambag‘allik muhitini kuchaytiradi va qahramon yashayotgan makonning ijtimoiy ahvolini ko‘rsatadi. Shunday qilib makon tasviri qahramon hayotining ijtimoiy sharoitini ochib beruvchi poetik vosita sifatida ishlatiladi.

Sans Famille (oilasiz) asaridan olingan ushbu parchada makon tasviri quyidagicha berilgan:

« *La longue route blanche s’étendait devant nous à travers les champs verts et les petits villages tranquilles* (Malo H., 1878, 82). — *Uzun oq yo‘l bizning oldimizda yashil dalalar va sokin kichik qishloqlar orasidan cho‘zilib ketardi*. Bu parchada makon tasvirida quyidagi stilistik vositalar ishlatilgan:

- Epitetlar: *longue, blanche, verts, tranquilles*
- Tasviriy detal: *route, champs, villages*

Bu epitetlar tabiat manzarasining estetik tasvirini yaratadi. Yo‘l makoni qahramonning sayohati va hayotiy izlanishini ifodalovchi poetik element sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek kontekstual tahlil metodi ham qo‘llanildi. Ushbu metod asarlardagi makon tasvirini tarixiy va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda o‘rganishga imkon berdi. Chunki realizm adabiyotida makon ko‘pincha jamiyatdagi ijtimoiy sharoitlarni aks ettiradi. Masalan:

The Gerhardt family lived in a poor quarter of the city, where small houses stood close together and the struggle for daily bread was visible in every face (Dreiser T., 1911, 7). — *Gerhardtlar oilasi shaharning kambag‘al qismida yashardi,*

u yerda kichik uylar bir-biriga juda yaqin joylashgan bo'lib, kundalik non topish uchun kurash har bir insonning yuzida ko'rinib turardi (Noirov E., 2005, 6). Bu parcha shahar makonining ijtimoiy muhitini tasvirlaydi. Tor va kambag'al kvartallar tasviri XIX asr oxiri amerikadagi ishchi sinf hayotini aks ettiradi. Drayzer realizm an'analari sodiq holda shahar makonini jamiyatdagi iqtisodiy tengsizlik va kambag'allik muammolari bilan bog'liq holda tasvirlaydi. (Bachelard G., 1958, 97). Shu orqali makon qahramon hayotining ijtimoiy kontekstini ochib beradi.

Malo asarida esa kontekstual muhit quyidagicha ifodalanadi:

Nous traversions des villages pauvres où les maisons basses et les rues étroites montraient la vie difficile des paysans (Hector M., 1878, 123). — *Biz kambag'al qishloqlardan o'tar edik, u yerda past uylar va tor ko'chalar dehqonlarning og'ir hayotini ko'rsatib turardi*. Ushbu parcha Fransiya qishloqlaridagi ijtimoiy hayotni aks ettiradi. Past uylar va tor ko'chalar tasviri qishloq aholisi yashash sharoitining qiyinligini ko'rsatadi. Malo makon tasviri orqali XIX asr fransuz jamiyatidagi ijtimoiy tabaqalanishni va oddiy xalq hayotini tasvirlaydi.

Tadqiqot materialini sifatida Drayzer va Malo romanlaridan olingan badiiy parchalar tahlil qilindi. Tanlangan matnlar qahramonlarning hayoti va ijtimoiy muhitini tasvirlashda makonning qanday rol o'ynashini ko'rsatadi. Tadqiqot jarayonida adabiyotshunoslikning zamonaviy nazariy qarashlari ham hisobga olindi. Xususan badiiy makon, xronotop va realizm poetikasiga oid ilmiy ishlardan foydalanildi. Ushbu metodlarning kombinatsiyasi badiiy makon poetikasini kompleks tarzda o'rganish imkonini berdi.

NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Drayzer va Malo asarlarida badiiy makon muhim poetik funksiyani bajaradi. U qahramonlarning ijtimoiy holati, ruhiy kechinmalari va hayotiy tanlovlari bilan bevosita bog'liq.

Drayzer asarlarida shahar makoni markaziy o'rin egallaydi. Industrial shahar muhiti inson hayotining murakkabligini va ijtimoiy tengsizlikni aks ettiruvchi asosiy badiiy makon sifatida tasvirlanadi. Shahar ko'pincha insonning ichki kurashi va ijtimoiy bosimlar bilan bog'liq muhit sifatida namoyon bo'ladi. Drayzer asarlarida

shahar makoni faqat geografik joy sifatida emas, balki ijtimoiy tizimning ramziy ifodasi sifatida ham talqin qilinadi. Katta shahar inson imkoniyatlari va orzularining markazi bo'lishi bilan birga, ko'plab qahramonlar uchun murakkab sinov maydoni ham hisoblanadi. Masalan:

The city seemed vast and strange to Jennie, full of noise, movement, and endless possibilities, yet it was also a place where the weak could easily be lost (Dreiser T., 1911, 44). — *Shahar Jenniga juda ulkan va g'alati tuyulardi — u shovqin, harakat va cheksiz imkoniyatlarga to'la edi, ammo shu bilan birga u zaif odamlar osonlikcha yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan joy ham edi* (Noirov E., 2005, 47). Ushbu parcha shahar makonining ikki tomonlama xarakterini ko'rsatadi. Bir tomondan, shahar imkoniyatlar va orzular markazi sifatida tasvirlanadi. Ikkinchi tomondan esa, bu makon ijtimoiy jihatdan zaif insonlar uchun xavfli va murakkab muhit sifatida namoyon bo'ladi. Drayzer realizm an'analari asosida shaharni ijtimoiy tizimning ramziy modeli sifatida tasvirlaydi. Shunday qilib, shahar makoni romanda nafaqat geografik joy, balki qahramonning hayotiy sinovlari va ijtimoiy kurashlari kechadigan muhim poetik makon sifatida namoyon bo'ladi.

Malo asarlarida esa badiiy makon ko'pincha sayohat bilan bog'liq. Qahramonlar turli hududlar orqali harakat qiladi va har bir yangi makon ularning hayotiy tajribasini boyitadi. Yo'l va sayohat makoni qahramonning shakllanish jarayonini aks ettiruvchi muhim poetik element hisoblanadi.

Nous allions de village en village, de ville en ville, et chaque jour la route nous apportait un nouveau paysage et une nouvelle expérience (Hector M., 1878, 122). — *Biz qishloqdan qishloqqa, shahardan shaharga borardik va har kuni yo'l bizga yangi manzara hamda yangi tajriba olib kelardi*. Ushbu parcha romanda yo'l va sayohat makonining muhim poetik element ekanligini ko'rsatadi. Qahramonlarning bir hududdan ikkinchi hududga o'tishi orqali makon doimiy ravishda o'zgarib boradi. Har bir yangi joy qahramon uchun yangi tajriba va hayotiy saboq manbai bo'lib xizmat qiladi. Malo badiiy makonni qahramonning ruhiy va ijtimoiy shakllanish jarayonini ko'rsatadigan muhim vosita sifatida qo'llaydi. Shu sababli yo'l va sayohat motivi romanning asosiy poetik elementlaridan biri

hisoblanadi. Malo asarlarida qishloq, kichik shaharlar va turli geografik hududlar tasviri qahramonning hayotiy yo'lini ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Bu makonlar qahramonning ruhiy o'sishi va tajriba orttirish jarayonini ifodalaydi.

«*Pendant notre voyage, nous passions par des villages inconnus, des routes solitaires et des petites villes où tout était nouveau pour moi* (Hector M., 1878, 97). — Sayohatimiz davomida biz noma'lum qishloqlar, kimsasiz yo'llar va men uchun hamma narsa yangi bo'lgan kichik shaharchalardan o'tar edik. Ushbu parcha qahramonning turli geografik hududlar orqali sayohat qilishini tasvirlaydi. Qishloqlar, yolg'iz yo'llar va kichik shaharlar tasviri qahramon uchun yangi tajribalar manbai sifatida namoyon bo'ladi. Har bir yangi makon qahramonning dunyoqarashi kengayishiga va uning hayotiy tajribasi ortishiga xizmat qiladi. Malo makon tasviridan foydalanib qahramonning ruhiy va ijtimoiy shakllanish jarayonini ko'rsatadi. Quyidagi jadvalda ikki yozuvchi asarining makon va zamon tasviri berilgan:

1-jadval.

“Jenni Gerxardt” va “Oilasiz” romanlaridagi makon va zamon tahlili

№	Tahlil mezon	Teodor Drayzer (Jennie Gerhardt)	Gektor Malo asarlari(Sans Famille)
1	Badiiy makon turi	Realistik, ijtimoiy muhitga asoslangan (shahar, kambag'allik muhiti)	Psixologik va ichki makon ustun
2	Makon va ijtimoiy muhit	Jamiyat tabaqalari aniq aks etadi	Ijtimoiy fon ikkilamchi, shaxsiy kechinmalar muhim
3	Xronotop (zamon-makon)	Tarixiy va real vaqt bilan bog'langan	Subyektiv vaqt, ichki kechinmalar orqali beriladi
4	Qahramon va makon munosabati	Qahramon muhit ta'sirida shakllanadi	Qahramon ichki dunyosi makonni belgilaydi
5	Makon poetikasi	Tafsilotlarga boy, tasviriy realizm	Ramziy va psixologik tasvirlar

6	Muallif yondashuvi	Naturalistik-realistik	Romantik-psixologik
7	Tasvir vositalari	Detallash, aniq tasvir	Metafora, ichki monolog
8	O'quvchiga ta'siri	Ruhiy kechinmalarni his qilish	Ruhiy kechinmalarni his qilish

Har ikki muallif asarlarida makon tasviri ko'pincha tasviriy detallar orqali beriladi. Mualliflar tabiat manzaralari, shahar ko'chalari, uy-joy tasviri va boshqa elementlardan foydalanib, badiiy makonni jonli va real ko'rinishda tasvirlaydilar. Tahlil shuni ko'rsatdiki, badiiy makon qahramon xarakteri bilan ham bevosita bog'liq. Qahramon yashaydigan muhit uning qarashlari, hayotiy tanlovlari va ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Natijada Drayzer va Malo asarlarida badiiy makon poetikasi realizm an'analari bilan uzviy bog'liq ekanligi aniqlandi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Drayzer va Malo asarlarida badiiy makon muhim poetik unsur sifatida namoyon bo'ladi. U faqat voqealar sodir bo'ladigan joy sifatida emas, balki asarning semantik tuzilmasining ajralmas qismi hisoblanadi. Har ikki yozuvchi makon orqali asarning mazmuniy qatlamini chuqurlashtiradi. Drayzer asarlarida shahar makoni alohida ahamiyat kasb etadi. U jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy ziddiyatlarning markazi sifatida tasvirlanadi. Industrial jamiyat sharoitida inson hayoti murakkablashib boradi. Shahar muhiti insonning imkoniyatlarini ham kengaytiradi, ham cheklaydi. Qahramonlarning ijtimoiy mavqei ko'pincha yashab turgan muhit bilan belgilanadi. Shu sababli makon ularning taqdiriga bevosita ta'sir qiladi. Drayzer shaharni insoniy kurashlar maydoni sifatida ko'rsatadi. Bu esa realizm an'analarga to'liq mos keladi. Muallif makon orqali jamiyatdagi muammolarni ochib beradi. Natijada o'quvchi voqelikni yanada chuqurroq anglaydi.

Malo asarlarida esa makon boshqa yo'sinda talqin qilinadi. Unda makon ko'proq harakat va sayohat bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Qahramon turli hududlarni kezib chiqadi. Har bir yangi joy unga yangi tajriba olib keladi. Bu jarayon

qahramonning ruhiy o'sishiga xizmat qiladi. Shuningdek, uning axloqiy qarashlari ham shakllanadi. Malo asarlarida yo'l obrazi markaziy o'rin egallaydi. Yo'l qahramon hayotining ramziy ifodasiga aylanadi. Turli makonlar orqali inson hayotining turli qirralari ochib beriladi. Qishloq va shahar muhitlari o'zaro solishtiriladi. Bu esa asarning badiiy ta'sir kuchini oshiradi.

Ikki muallif asarlaridagi makon tasviri o'ziga xos jihatlarga ega. Bu farqlar ularning estetik qarashlari bilan bog'liq. Drayzer ko'proq ijtimoiy realizmga e'tibor qaratadi. Malo esa insonparvarlik g'oyalari va sarguzasht unsurlariga urg'u beradi. Shunga qaramay, har ikki yozuvchi makondan samarali foydalanadi. Ular makon orqali jamiyatdagi muammolarni yoritadi. Qahramonlarning ichki kechinmalari ham makon bilan uyg'unlashadi. Natijada asarda yaxlit badiiy tizim shakllanadi. Badiiy makon poetikasi realizm adabiyotining muhim elementi hisoblanadi. Shu bois Drayzer va Malo ijodida makon tasviri alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari Drayzer va Malo asarlarida badiiy makon poetikasi muhim o'rin egallashini ko'rsatdi. Makon tasviri qahramon xarakteri, ijtimoiy muhit va voqealar rivoji bilan uzviy bog'liq. Drayzer asarlarida shahar makoni ijtimoiy ziddiyatlar va industrial jamiyat muammolarini aks ettiruvchi asosiy badiiy muhit sifatida namoyon bo'ladi. Malo asarlarida esa makon qahramonning hayotiy sayohati va ruhiy rivojlanishini aks ettiruvchi element sifatida tasvirlanadi. Har ikki muallif makon tasviridan foydalanib jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yoritish hamda qahramonlarning hayotiy yo'lini ko'rsatishga erishgan. Shu sababli badiiy makon poetikasi Drayzer va Malo asarlarining estetik tuzilmasida muhim o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bachelard G. La poétique de l'espace. – Paris: Presses Universitaires de France, 1958. – 214 p.
2. Bakhtin M. M. Вопросы литературы и эстетики. – Москва: Художественная литература, 1975.
3. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari: muallif, janr, xronotop. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 356 b.
4. To'rayeva B. B. Zamonaviy romanchilikda xronotop poetikasining qiyosiy-tipologik tadqiqi (Ch. Aytmatov va N. Norqobilov romanlari misolida): filol. fan. dokt. (DSc) diss. – Toshkent, 2022. – 261 b.
5. Qarshibayeva U. D. Fransuz romantizm prozasining poetik xususiyatlari: filol. fan. dokt. diss. – Toshkent, 2016. – 166 b.
6. Dreiser T. Jennie Gerhardt. – New York; London: Harper & Brothers Publishers, 1911.
7. Dreiser T. Jenni Gerxardt / tarj. E. Nosirov. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2025.
8. Bakhtin M. M. The Dialogic Imagination: Four Essays / ed. M. Holquist; trans. C. Emerson, M. Holquist. – Austin: University of Texas Press, 1981. – 444 p.
9. Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method / trans. J. E. Lewin; foreword by J. Culler. – Ithaca: Cornell University Press, 1980. – 285 p.
10. Lotman Y. M. The Structure of the Artistic Text / trans. R. Vroon. – Ann Arbor: University of Michigan, 1977. – 300 p. – (Michigan Slavic Contributions; Vol.7).
11. Malot H. Sans famille. – Paris, 1878.

REFERENCE

1. Bachelard G. (1958). *La poétique de l'espace*. Presses Universitaires de France.
2. Bakhtin M. M. (1975). *Voprosy literatury i estetiki* Вопросы литературы и эстетики. Khudozhestvennaya literatura.
3. Jurakulov U. (2012). *Issues of theoretical poetics: author, genre, chronotope*.
4. Turaeva B. (2014). *A comparative-typological study of the poetics of the chronotope in modern novels*.
5. Karshibaeva U. D. (2016). *Poetic features of French Romantic prose*.
6. Dreiser T. (1911). *Jennie Gerhardt*. Harper & Brothers.
7. Dreiser T. (2025). *Jenni Gerxardt* (E. Nosirov, Trans.). *Yoshlar matbuoti*.
8. Bakhtin M. M. (1981). *The dialogic imagination: Four essays*. University of Texas Press.
9. Genette G. (1980). *Narrative discourse: An essay in method*. Cornell University Press.
10. Lotman Y. M. (1977). *The structure of the artistic text*. University of Michigan Press.
11. Malot H. (1878). *Sans famille*. Édition du groupe Ebooks libres et gratuits.